

THE FUNCTIONS OF MASS COMMUNICATION IN CRISIS SITUATIONS

Abdukarimova Hadicha Abdulxafiz qizi

*Ingliz filologiyasining 1-bosqich talabasi. Filologiya va xorijiy tillar,
Diplomat University, Toshkent.*

Ilmiy rahbar: Mamadjanova Dildora Ulug'bek qizi

+998998647669

abdukarimov2050@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola zamonaviy jamiyatda yuzaga keladigan tabiiy ofatlar, pandemiya davrida va inqirozli vaziyatlarda ommaviy kommunikatsiyaning bajaradigan vazifalarini ko'rib chiqadi. Asosiy maqsad inqiroz vaqtida axborotlarni boshqarish, ma'lumotlarni aholiga o'z vaqtida, to'g'ri talqinda yetkazish, birdamlikni oshirish, axborot va ko'rsatmalar berish va shu kabi muhim vazifalarni bajaradi. Inqirozli vaqtda samarali funktsiya va strategiyalarni ishlab chiqish aholi va jamiyat xavfsizligi uchun muhim o'rindadir.*

Kalit so'zlar: *Ommaviy kommunikatsiya, inqiroz, jamiyat, OAV funktsiyalari, ijtimoiy xavfsizlik.*

Abstract. *This article examines the functions of mass communication during crisis situations and natural disasters in modern society. The article analyzes information management, ensuring timely and accurate delivery of data to the public, increasing social cohesion, and providing essential instructions. Developing effective communication functions and strategies during crises plays a vital role in ensuring the safety of the population and society.*

Keywords: *Mass communication, crisis, society, Emergency communication, crisis management, public safety.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются функции массовой коммуникации в кризисных ситуациях и при стихийных бедствиях, возникающих в современном обществе. Основная цель исследования заключается в управлении информационными потоками, своевременном и правильном донесении информации до населения, повышении сплоченности общества, а также предоставлении необходимых инструкций. Разработка эффективных функций и стратегий в кризисные периоды играет важную роль в обеспечении безопасности населения и общества.*

Ключевые слова: *Массовая коммуникация, кризис, общество, информационная стратегия, антикризисное управление, безопасность общества.*

Kirish.

Bugungi globallashtirilgan davrda insonlar turli xil tabiiy ofatlar, pandemiya, ijtimoiy-iqtisodiy halokatlarga duch kelishmoqda. Bunday vaziyatlarda to'g'ri ma'lumotlarni izlash va axoliga yetkazish juda muhim. Zero, falokatli vaziyatlarda to'g'ri yetkazilgan axborot odamlar xavfsizligini ta'minlash va ularning ruhiy barqarorligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotchi "Kumbsning (2010) ta'kidlashicha, inqiroz paytida ommaviy kommunikatsiyaning birinchi galdagi vazifasi aholini axborot bilan ta'minlash orqali ularning psixologik jarohatlarini kamaytirishdir. Media inqiroz turi va darajasiga qarab o'z ko'rsatmalarini moslashtirishi, xalq va hukumat o'rtasida ishonchli ko'pri bo'lishi lozim (Coombs, 2010)".

Buning sababi shundaki, favqulodda vaziyatlarda rasmiy va aniq ma'lumotlarning yetishmasligi jamiyatda har xil mish-mishlar hamda yolg'on xabarlarining ko'payishiga olib keladi. Media esa o'z vaqtida ko'rsatmalar berish orqali ana shu axborot bo'shlig'ini to'ldiradi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi inqirozli vaziyatlarda va pandemiya davrida ommaviy kommunikatsiyaning qay darajada muhimligi va funksiyalarini tahlil qilish, axborotlarni to'g'ri yo'naltirish va aholi xavfsizligini ta'minlashdan iboratligini ko'rsatadi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tavsifiy tahlil va ilmiy adabiyotlarni o'rganish metodlaridan foydalanildi.

Asosiy qism. Axborot berish va pandemiyalar davridagi choralar. Zamonaviy axborot jamiyatida inqiroz boshlangan ilk daqiqalardan birinchi zarba baribir psixologik maydonga kelib tushadi. Insonlar real xavfdan ko'ra ko'proq axborot yetishmasligidan vahimaga tushadilar. Bizning fikrimizcha, ommaviy kommunikatsiyaning eng birinchi vazifasi hodisani shunchaki xabar qilish emas, balki jamiyatdagi hissiy portlashning oldini olishdir. Ya'ni, media falokat paytida voqeani qanchalik sovuqqonlik va aniq raqamlar bilan yoritib borsa, jamiyatning o'zini tutishi ham shunchalik tartibli bo'ladi. Aksincha, hissiyotga berilgan va shov-shuv ketidan quvgan har qanday xabar inqiroz ko'lamini sun'iy ravishda kattalashtirib yuboradi.

Inqiroz yoki tabiiy ofat yuz berganda ommaviy kommunikatsiyaning bosh vazifasi — aholini tezkor ogohlantirishdir. Olim Mettyu Seger (Matthew W. Seeger, 2003) ta'kidlaganidek, inqiroz paytida aniq ma'lumot berilmasa, kuchli axborot bo'shlig'i yuzaga keladi va uni yolg'on xabarlar to'ldiradi". Yaqin o'tmishdagi COVID-19 pandemiyasi buni yaqqol ko'rsatdi: agar OAV kasallik statistikasi va karantin qoidalarini o'z vaqtida e'lon qilmaganida, asossiz mish-mishlar jamiyatda nazorat qilib bo'lmas vahimani keltirib chiqargan bo'lar edi. Inqiroz davrida medianing asosiy roli aholiga aniq hayotiy yo'riqnomalar taqdim etishda namoyon bo'ladi.

Pandemiya paytida OAV orqali berilgan "uyda qoling", "niqob taqing" kabi ko'rsatmalar millionlab insonlar xulq-atvorini o'zgartirib, kasallik tarqalish ko'rsatkichining kamayishiga xizmat qildi. Bu borada Uilyam Benoit (William L. Benoit, 1995) qayd etganidek, inqirozli davrda har bir axborot xalq to'g'ri amal qila

oladigan darajada sodda va ochiq bo'lishi shart. Aks holda bu xavfning ortishiga olib kelib, zararlar ham oshar edi. Ushbu jarayonda shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, inqirozli davrda beriladigan har qanday ko'rsatma millatning madaniy va ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqib moslashtirilishi shart. Masalan, g'arb davlatlarida shaxsiy mas'uliyatga urg'u beruvchi yo'riqnomalar yaxshi ishlasa, bizning jamiyatimizda jamoaviylik, mahalla instituti va oilaviy qadriyatlarga tayangan xabarlar ko'proq ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Bizning nuqtayi nazarimizdan kelib chiqib aytganda, milliy media ko'rsatmalarni shunchaki buyruq yoki taqiq shaklida emas, balki xalqning mentalitetiga mos keladigan, milliy qadriyatlar orqali tushuntirsa, aholi bu qoidalarga ancha tez va o'z xohishi bilan amal qila boshlaydi.

Inqirozlar va karantin cheklovlari odamlar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kirish qismida aytilganidek, olim U. Timoti Kumbs (W. Timothy Coombs, 2010) inqiroz davrida muloqotning asosiy maqsadi aholining psixologik jarohatlarini kamaytirish ekanligini asoslagan. Pandemiya vaqtida OAVda shifokorlar va ko'ngillilar jasorat ko'rsatgani, "Biz birgamiz" kabi loyihalar jamiyatni ruhan birlashtirdi va tushkunlikni yengishga yordam berdi.

Tadqiqotchi M. Balarabe (2021) ham zamonaviy jamiyatdagi inqirozlar va tabiiy ofatlar tahliliga bag'ishlangan ilmiy maqolasida ommaviy kommunikatsiyaning ushbu ogohlantirish funksiyasi kutilmagan talofatlar ko'lamini keskin kamaytirishini alohida ko'rsatib o'tgan (Balarabe, 2021). Bugungi internet tezlashgan davrda axborot yetkazishda faqat an'anaviy OAV bilan cheklanmasdan, ijtimoiy tarmoqlar va tezkor mobil ogohlantirishlardan unumli foydalanish kerak. Insonlarning aynan o'sha vaqtda turgan joyiga qarab tezkor xabarlarini yuborish axborot yetkazish tezligini jadallashtiradi, hamda aholini xavfdan ogoh etish samaradorligini oshiradi. B. Reynolds va M. Seger (2005) tomonidan ishlab chiqilgan "Inqiroz va favqulodda vaziyatlardagi xavf muloqoti" (CERC) modeli sog'liqni saqlash inqirozlari hamda epidemiyalar davrida rasmiy organlar aholi bilan qanday tezkor amaliy aloqa o'rnatishi kerakligini ilmiy asoslab beradi (Reynolds & Seeger, 2005). Ushbu modelni tahlil qilgan holda ta'kidlab o'tishimiz kerakki, inqiroz paytida beriladigan yo'riqnomalar nafaqat tezkor, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun tushunarli bo'lishi shart. Media murakkab terminlardan qochib, xabarlarini rasmlar bilan tushuntirish va qisqa videolar ko'rinishida taqdim etishi kerak, shundagina aholi ko'rsatmalarga aniq va to'g'ri amal qila oladi. Favqulodda vaziyatlarda ommaviy kommunikatsiyaning barqarorlikni ta'minlash funksiyasi O'zbekiston tajribasida ham yaqqol namoyon bo'lgan. Mahalliy tadqiqotchi R. Nurmatov (2022) o'zining inqiroz davridagi media tahliliga bag'ishlangan maqolasida qayd etishicha, 2020-yildagi Sardoba suv ombori halokati va COVID-19 pandemiyasi davrida O'zbekiston milliy mediasida aholini vahimadan asrashda asosiy vositaga aylandi. Koronavirus inqirozi boshlangan ilk kunlardan oq tashkil etilgan "Koronavirus info" Telegram-kanali va milliy telekanallardagi uzluksiz brifinglar

axborot bo'shlig'ini to'ldirishga xizmat qildi. faqatgina rasmiy brifinglar o'tkazish bilan cheklanib qolmasdan, raqamli media makondagi yolg'on xabarlarni sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan tarzda filtrlash tizimini yo'lga qo'yish kerak edi. Nurmatov o'z tadqiqotida medianing ijobiy tomonlariga ko'proq urg'u bergan bo'lsa, bizning tahlillarimiz inqiroz muloqotida dualistik (ikki tomonlama) yondashuv zarurligini, ya'ni ham axborot tarqatish, ham axborot xurujlaridan himoyalani tizimini parallel ravishda kuchaytirish shartligini ko'rsatmoqda. Yana bir o'zbek olimasi N. Tojiyeva (2023) ta'kidlaganidek, inqirozli vaziyatlarda aholini ruhan qo'llab-quvvatlash va milliy birdamlikni shakllantirishda "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi kabi tashabbuslarning mediada keng yoritilishi jamiyatda ijtimoiy mas'uliyat hissini keskin oshirdi (Tojiyeva, 2023). Fikrlarga qaraganda O'zbekiston milliy OAVlari inqiroz davrida tezkor axborot tarqatish tizimini to'g'ri yo'lga qo'ya olgan bo'lsa-da, kelajakda feyk (yolg'on) xabarlarga qarshi tezkor raddiyalar berish mexanizmini yanada avtomatlashtirishi zarur. Ayniqsa, hududiy favqulodda vaziyatlar yuz berganda, mahalliy aholini faqat markaziy nashrlar orqali emas, balki hududiy bloklar va ijtimoiy tarmoq guruhlari orqali mobil ogohlantirish tizimi bilan integratsiya qilish ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash samarasini ikki barobarga oshiradi.

Xulosa. Ushbu o'rganishlarimiz asosida xulosani bayon etishimiz lozimki bugungi raqamli asrda har qanday davlat inqiroz muloqot tizimini tubdan isloh qilishi kerak. Bizning fikrimizcha, inqiroz yuz bergandan keyin harakat qilish taktikasi o'zini oqlamayapti. Milliy mediamizda "inqirozgacha bo'lgan tayyorgarlik muloqoti" shakllanishi shart. Ya'ni, favqulodda vaziyat yuz bermasidan oldin aholida ijtimoiy tarmoq xabarlarini filtrlash, feyklarni ajratish bo'yicha media-savodxonlik shakllantirilishi kerak. Shundagina, kutilmagan ijtimoiy tanglik paydo bo'lganda, jamiyat har qanday yot va yolg'on axborot xurujlariga qarshi mustahkam tura oladi. Olingan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy axborot makonida faqatgina klassik modellarga tayanib qolmasdan, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining pandemiyadagi inqirozli kommunikatsiya bo'yicha tavsiyaviy hisobotlarida keltirilgan yangi mexanizmlarni ham amaliyotga joriy etish zarur. Ayniqsa, global krizislar davrida ishonchli manbalarning yetishmasligi dezinformatsiyani (feyk xabarlarni) keltirib chiqarishi xalqaro miqyosda ham, O'zbekiston tajribasida ham o'z isbotini topdi.

Maqolaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda keltirilgan xulosalar va strategik tavsiyalar (ijtimoiy tarmoqlar platformalaridan unumli foydalanish hamda aholini turgan joyiga qarab hududiy mobil ogohlantirish tizimi bilan ta'minlash) kelgusida Favqulodda vaziyatlar vazirligi va milliy media-tuzilmalar uchun inqirozli vaziyatlarda jamoat xavfsizligini boshqarish bo'yicha qo'llanma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Balarabe, M. (2021). The Functions of Mass Communication in Managing Crises and Natural Disasters in Modern Society. *Global Journal of Human-Social Science*, 21(2), 15–23.
2. Benoit, W. L. (1995). *Accounts, Excuses, and Apologies: A Theory of Image Restoration Strategies*. State University of New York Press.
3. Coombs, W. T. (2010). *Ongoing Crisis Communication: Planning, Managing, and Responding* (3rd ed.). Sage Publications.
4. Nurmatov, R. (2022). Inqirozli vaziyatlarda ommaviy axborot vositalarining axborot xavfsizligini ta'minlashdagi roli. *O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari*, 3(1), 112-116.
5. Reynolds, B., & Seeger, M. W. (2005). Crisis and Emergency Risk Communication as an Integrative Model. *Journal of Health Communication*, 10(1), 43-55.
6. Seeger, M. W., Sellnow, T. L., & Ulmer, R. R. (2003). *Communication and Organizational Crisis*. Praeger Publishers.
7. Tojiyeva, N. (2023). Pandemiya davrida ijtimoiy media va jamoatchilik fikrining shakllanishi xususiyatlari. *Filologiya masalalari jurnali*, 2(4), 85-91.